

**ELEKTRON TIJORATDA BITIMLARNING ENG MUHIM
SHARTLARI VA UNGA RIOYA QILMASLIKNING FUQAROLIK
HUQUQIY OQIBATLARI**

To'raqulxojiyeva Moxigul

Ma'lumki, bitimlar ijtimoiy davlat va jamiyat hayotida mumtoz yuridik fakt sifatida g'oyatda muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda bitimlarning katta qismi an'anaviy yozma yoki og'zaki shakllar o'rniga, elektron aloqa vositalari orqali tuzilmoqda. Biroq, bu o'ziga xosliklarga qaramay, elektron tijorat bitimlari ham fuqarolik huquqining umumiy tamoyillariga bo'ysunadi, xususan, bitimning muhim shartlariga rioya qilish zaruriyati saqlanib qoladi.

Elektron tijoratda shartnomalar tuzish usullari va ularning eng muhim shartlari fuqarolik muomalasi uchun juda muhimdir. Onlayn shartnomalardagi barcha shartlar qonunchilik talablariga to'liq mos kelishi shart.

Elektron tijorat shartnomalari, ba'zan, boshqa elektron hujjatlarga havolalar orqali qo'shimcha shartlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Bu havolalar hamma uchun ochiq bo'lgan axborot resurslarida joylashadi. Agar shartnoma shu tarzda tuzilgan bo'lsa, uni joylashtirgan elektron tijorat ishtirokchisi belgilangan muddat davomida ushbu hujjatdan erkin foydalanishni ta'minlashi kerak. Shuningdek, muddat tugagach, hujjatning qonuniy tartibda saqlanishini ham ta'minlash uning majburiyatidir.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 364-moddasiga ko'ra, har qanday shartnomada muhim shartlar bo'lishi shart. Bu degani, shartnomaning asosiy narsasi (predmeti) haqidagi shartlar, qonunlarda shu turdagi shartnomalar

uchun majburiy deb belgilangan shartlar, shuningdek, agar tomonlardan biri so'rasa, kelishib olinishi shart bo'lgan barcha shartlar muhim hisoblanadi.

Elektron tijoratda esa bu muhim shartlar biroz o'zgacha ko'rinishga ega bo'ladi, chunki ular asosan raqamli shaklda ifodalanadi va biz ularni onlayn platformalar orqali kelishib olishimiz mumkin bo'ladi.

Elektron tijorat shartnomalarining huquqiy mustahkamligi va amaliy samaradorligi unda mavjud bo'lgan majburiy shartlarning to'g'ri va aniq ifodalanishi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu shartlar, an'anaviy yozma shartnomalardagi kabi, tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, ularning huquq va majburiyatlarini belgilovchi asosiy mexanizmlar hisoblanadi. Elektron muhitning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, internet orqali aloqa va avtomatlashtirilgan jarayonlar, bu shartlarning shakllanishi va tatbiq etilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Shartnomada quyidagi asosiy shartlar bo'lishi lozim: shartnoma predmeti; tomonlarning asosiy huquq va majburiyatlari; mahsulot (xizmat, ish) narxi va tavsifi hamda hisob-kitob tartibi; zarur hollarda kafolat muddati; yetkazib berish manzili va shartlari; tomonlarning javobgarligi; majburiyatlarni bajarish muddati va tartibi; o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi; bitimdan voz kechish shartlari; mahsulot va mablag'ni qaytarish tartibi; shartnoma tili; elektron hujjatlar va havolalar asosida kiritiladigan shartlar va ulardan foydalanish tartibi (agar mavjud bo'lsa); shartnomaning amal qilishini to'xtatish asoslari; nizolarni hal qilish tartibi; tomonlarning manzillari, elektron pochta va bank rekvizitlari; tomonlar kelishgan boshqa shartlar.

Shartnoma tarkibiga, umumfoydalanishdagi axborot resursiga joylashtirilgan elektron hujjatga havola orqali kiritiladigan alohida bandlar ham kiritilishi mumkin. Bu holda hujjatni joylashtirgan tomon belgilangan muddatda unga erkin kirish imkonini ta'minlashi va muddat tugagach uni qonun talablariga muvofiq saqlashi lozim. Shartnomadagi o'zgartirishlar elektron hujjat yoki elektron xabar shaklida rasmiylashtiriladi va ular shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Yangi tahrirda ishlab chiqilgan "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunda shartnomaning shartlariga oid alohida norma kiritilgan¹. Unga ko'ra, elektron tijoratda tuziladigan shartnomalar shartnomaning barcha muhim shartlarini o'z ichiga olishi va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, ushbu Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga mos kelishi kerak.

Elektron tijoratdagi shartnoma shartlari aniq, tushunarli va shubhasiz davlat va/yoki tomonlar uchun qulay bo'lgan boshqa tilda tuzilishi va maxsus bilimlarga ega bo'lmagan mijox tomonidan qabul qilinishi mumkin bo'lgan shaklda taqdim etilishi, shu bilan birga mijozga shartnomani saqlash va ochish imkonini berishi kerak.

Shartnoma shartlariga: shartnomani va shartnoma bo'yicha tomonlarning majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq boshqa hujjatlarni tuzish usuli; tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish vaqtida ular o'rtasida elektron hujjatlar bilan almashish tartibi; hujjatni imzolagan vakolatli shaxsning elektron imzosidan foydalanish va/yoki identifikatsiyalash tartibi, shuningdek, hujjatning ishonchliligini tekshirish tartibi; tomonlar tarafidan o'rnatilgan axborot tizimida yoki butunjahon Internet axborot tarmog'i saytidagi elektron hujjatlarga havolalar

¹ Электрон тижорат тўғрисида (янги таҳрир) // <https://regulation.gov.uz/oz/d/32417>.

berish yo'li bilan shartnomaga kiritiladigan shartlarga havolalar va ko'rsatmalar; tomonlarning o'z shaxsiy ma'lumotlaridan, yozishmalarini va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq boshqa hujjatlashtirilgan axborotdan foydalana olishlarini ta'minlash tartibi; tomonlarning o'zlarining shaxsiy ma'lumotlaridan, yozishmalardan va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq boshqa hujjatlashtirilgan axborotdan foydalanishlarini ta'minlash tartibi kiritilishi mumkin.

Shartnomada shartnomaning ayrim shartlari tomonlarning kelishuvi bo'yicha alohida elektron hujjat bilan belgilangan shaklda va tomonlardan birining axborot tizimi ma'lumotlar bazasida joylashtiriladigan shartnomaning tarkibiy qismi sifatida taqdim etish formatida rasmiylashtirilishi mumkinligi ko'zda tutilishi mumkin.

Shartnomada shartnoma rasmiylashtirilgan va imzolangandan so'ng uni tomonlardan birining yoki biznes-operator (unga butunjahon Internet axborot tarmog'i orqali kirishni ta'minlab) axborot tizimining ma'lumotlar bazasida saqlash uchun yuridik kuchga ega bo'lgan va nizolar paydo bo'lganda tomonlar havola qilishi mumkin bo'lgan nusxa sifatida topshirishlari ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin.

Bunday holda shartnoma shartlariga qo'shimcha ravishda:elektron hujjatlar saqlanishini tashkil qilish bo'yicha shartnoma tomonlaridan birining majburiyatlari, foydalana olish usullarini ko'rsatgan holda saqlash uchun topshirilgan hujjatni saqlash va foydalana olish shartlari kiritilgan bo'lishi kerak.

Shartnomani saqlash uchun qabul qiluvchi shaxs, hujjatlashtirilgan ma'lumotlarning himoyasini, o'zgarmasligini, va ishonchliligini, hujjat joylashgan

ma'lumotlar bazasi muhofazasini va xafsizligini, shuningdek shartnoma tomonlari unga to'siqsiz va xavfsiz kirishini shartnoma amal qilish muddati davomida ta'minlashi shart.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq elektron tijorat ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqarilgan barcha ma'lumotlar sotuvchi (ijrochi, yetkazib beruvchi) tomonidan majburiy saqlanishi shart.

Elektron tijoratda tovarni qaytarish "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"², "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"³gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Fuqarolik kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi. Agar xaridorga pul qaytarilishi kerak bo'lsa, sotuvchi tovar yoki xizmat uchun to'lov qaysi usulda qilingan bo'lsa, xuddi o'sha usulda qaytarishi shart. Bunda, xaridor tomonidan taqdim etilgan, to'lovni tasdiqlovchi va chekka tenglashtirilgan hujjat asos bo'ladi.

Pulni qaytarish shartnomada belgilangan tartib va muddatlarda amalga oshiriladi. Tovar va pulni qaytarishga oid barcha hujjatlar elektron shaklda rasmiylashtirilishi mumkin. Tovarni qaytarishdagi transport xarajatlari ham shartnomadagi kelishuvlarga muvofiq qoplanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabrdagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

² O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 18.01.2022-y., 03/22/746/0032-son; 28.02.2023-y., 03/23/819/0113-son.

³ "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi qonun // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son; 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son.

to'g'risida"⁴gi PF-6313-sonli Farmonida fuqarolik-huquqiy munosabatlarni yanada takomillashtirish, ayrim shartnomalarni tuzishda o'rnatilgan sun'iy cheklovlarni olib tashlash, shuningdek, shartnomaviy munosabatlarda axborot tizimlaridan foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish nazarda tutilgan. Unga ko'ra, tijorat banklariga yetkazib berilgan mahsulot (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) uchun to'lovlarni uchinchi shaxslar hisobidan qabul qilishga qo'yilgan taqiq; davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning mahsulotlarni yetkazib berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida tuziladigan shartnomalarida majburiy ravishda oldindan to'lovni belgilashga doir talab; qishloq xo'jaligi va chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchilari va tayyorlov tashkilotlari o'rtasida tuziladigan shartnomalarda majburiy ravishda avansni belgilashga doir talablar bekor qilindi.

Elektron tijorat bitimlarida nazarda tutilgan shartlarga rioya qilmaslik bir qator fuqarolik huquqiy oqibatlariga sabab bo'ladi. Xususan, Fuqarolik kodeksining 237-moddasidan anglashiladiki, shartnomaviy majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi⁵.

Majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lash fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullaridan biri hisoblanadi. Majburiyatlar Fuqarolik kodeksida belgilangan talablarga muvofiq ijro etilishi shart. Jumladan, majburiyatlar majburiyat

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabrdagi PF-6313-son "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 06/21/6313/0871-son.

⁵ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.04.2025-y., 03/25/1060/0373-son.

shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmaganida esa ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak. Majburiyatni bajarishda undan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmasligi; majburiyat kelishilgan taraflar uchun maqbul usulda; qismlarga bo'lib, tegishli shaxsga; ijro etish muddatlarida va joyida bajarilishi lozimligi to'g'risidagi qoidalar hisobga olinishi shart.

Majburiyatning bajarilmasligi shartnomaning yoki uni vujudga keltirgan boshqa asoslarning turiga qarab turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, elektron tijoratda oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha xaridor sotuvchidan tovarni qabul qilib, ammo unga kelishilgan miqdordagi summani to'lamasa, majburiyatning bajarilmasligi holati vujudga keladi.

Ta'kidlash joizki, xaridor, qonunda nazarda tutilgan hollarda, tovarni (ish, xizmatni) sotib olishdan voz kechishga haqli. Buning uchun u sotuvchiga o'zi bilan tuzilgan shartnomani bekor qilish sabablarini tushuntirib xabar berishi kerak.

Biroq, agar shartnomada aniq ko'rsatilgan bo'lsa, xaridor shartnoma shartlarini bajarishdan bosh torta olmaydi.

Ta'kidlash joizki, elektron tijoratda bitimlar tuzish va ularning shartlariga rioya qilish muhimdir. Zamonaviy texnologiyalar bu jarayonni soddalashtirgan bo'lsada, qonunchilik talablariga rioya qilish, shartnomalarni aniq va tushunarli shaklda tuzish, shuningdek, tomonlarning huquq va majburiyatlarini malaga oshirilishini elektron tijoratning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun asosiy kafolatdir. Shartnoma shartlariga amal qilinmagan hollarda Fuqarolik kodeksi va tegishli qonun hujjatlari asosida, majburiyatlarning to'liq va o'z vaqtida

bajarilishini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni himoya qilish mexanizmlaridan foydalanish lozim.

MANBALAR

1. Elektron tijorat to'g'risida (yangi tahrir),
<https://regulation.gov.uz/oz/d/32417>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 18.01.2022-y., 03/22/746/0032-son; 28.02.2023-y., 03/23/819/0113-son.
3. "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi qonun // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son; 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabrdagi PF-6313-son "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 06/21/6313/0871-son.

5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi //
Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.04.2025-y.,
03/25/1060/0373-son.